



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING BUYRUG'I

20 21 y. "30" iyul № 41

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 5- oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni, shuningdek, 2020- yil 28- apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini samarali ta'minlash maqsadida, **BUYURAMAN:**

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini (keyingi o'rinlarda – kuzatuv) tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tartib ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Axborot xavfsizligi boshqarmasi (Sh. Djanadilov) kuzatuvlarni maxsus elektron qurilmalar (planshetlar) yordamida amalga oshirish bo'yicha 1-AKT (jsh) "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi va bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar bo'yicha so'rovnoma" kuzatuv shakliga asosan tegishli dasturiy ta'minot ishlab chiqsin.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasi (Sh. Odilov), Xizmatlar sohasi statistika boshqarmasi (A. Mirzaxidov), Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi (B. Irgashev), hududiy statistika boshqarmalari boshliqlari tanlanma kuzatuv shakli va tanlanma ro'yxat asosida platformani tashkil etish, ishga tushirish va uning uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlasinlar.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari boshliqlari:

Qo'mita tomonidan tanlanma ro'yxat asosida platformaga joylashtirilgan tanlanma kuzatuv shakli bo'yicha ma'lumotlarni o'z vaqtida yig'ib olinishini;

hududiy tarmoq statistikasi bo'limlari tomonidan kuzatuvlarni yuqori sa'viyada va puxta amalga oshirilishini, ma'lumotlarning sifati hamda to'liqligini ta'minlagan holda joriy yilning 30- avgustiga qadar Qo'mitaga taqdim etilishi yuzasidan shaxsiy nazorat o'rnatsinlar.

5. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi (F. Berdibayev) mazkur buyruqni Qo'mita markaziy apparati bo'linmalariga tanishtirilishini hamda quyi tizim organlariga yetkazilishini tashkil etsin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Rais



B. Begalov